



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**XORAZM VILOYATINING
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-sentabr*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 62-224-65-09***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **6 129** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **80** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **6 049** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **10 167,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,3** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **380,3** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **66,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9 786,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **111,0** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 968,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **115,3** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	10 167,0	108,3
Urganch sh.	2 585,7	111,3
Xiva sh.	464,3	106,3
Bog'ot	581,4	108,0
Gurlan	803,6	108,2
Qo'shko'pir	486,6	111,8
Urganch	1 240,9	105,8
Hazorasp	1 009,4	105,9
Tuproqqal'a	231,4	108,7
Xonqa	628,0	105,4
Xiva	353,6	105,8
Shovot	719,9	109,2
Yangiariq	442,7	105,7
Yangibozor	281,2	108,6


2024- yilning yanvar-sentabr oyida 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan viloyatning Qo'shko'pir tumanida (**111,8%**), Urganch shahrida (**111,3** %) hamda Shovot tumanida (**109,2** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **112,7 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning sentabridan 2024- yilning sentabriga qadar chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati **108,3 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **26,3** % bilan **2 585,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,4** % bilan **231,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so 'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-sentabr oyida, statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 786,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023–yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **10,8** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,3** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **33,4** % ga kamaydi va **380,3** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,7** % ulushiga to'g'ri keldi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

108,3

Gurlan

108,7

Tuproqqal'a

110,0

Shovot

112,1

Qo'shko'pir

119,9

Urganch sh.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

106,8

Bog'ot


132,4

Yangibozor


140,5

Tuproqqal'a

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,8 %**), Yangiariq (**99,6 %**) hamda Gurlan va Qo'shko'pir (**99,5 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**8,3 %**), Xiva tumani (**6,0 %**), Yangibozor tumani (**4,4 %**), Xiva shahri (**3,6 %**) va Hazorasp tumanida (**3,2 %**) kuzatildi.

3,7 %



96,3 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-sentabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 062,5** ming so'mni (2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **106,2 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**16 768,6** ming so'm), Urganch (**5 766,1** ming so'm) va Gurlan (**5 082,6** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-sentabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 968,6	115,3
Urganch sh.	331,6	109,8
Xiva sh.	93,3	102,1
Bog'ot	248,6	114,0
Gurlan	282,4	110,9
Qo'shko'pir	184,6	128,6
Urganch	-	-
Hazorasp	207,0	127,3
Tuproqqal'a	31,4	136,2
Xonqa	127,4	110,5
Xiva	-	-
Shovot	330,2	119,3
Yangiariq	80,5	113,7
Yangibozor	51,7	106,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2024- yil yanvar-sentabr)














Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 968,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **115,3 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **953,9** mlrd so'mni (**121,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 014,7** mlrd so'mni tashkil etdi (**109,8 %**).













2024- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **953,9** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**467,8** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>467,8 mlrd so'm</p>  <p>49,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>84,9 mlrd so'm</p>  <p>8,9 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>98,7 mlrd so'm</p>  <p>10,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>50,6 mlrd so'm</p>  <p>5,3 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>29,6 mlrd so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>32,0 mlrd so'm</p>  <p>3,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>16,7 mlrd so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>31,0 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>43,7 mlrd so'm</p>  <p>4,6 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>12,4 mlrd so'm</p>  <p>1,3 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>15,2 mlrd so'm</p>  <p>1,6 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>112,7 mlrd so'm</p> <p>11,8 %</p>

2024- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 014,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **933,4** mlrd so'm, qo'y va echkilar – **76,2** mlrd so'mni, parrandalar – **5,0** mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>523,2 mlrd so'm</p>  <p>51,6 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>276,5 mlrd so'm</p>  <p>27,3 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>133,6 mlrd so'm</p>  <p>13,2 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>65,1 mlrd so'm</p>  <p>6,4 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>11,1 mlrd so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>2,6 mlrd so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Tovuqlar</p> <p>2,4 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyonglar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p>	<p>Qushlar</p> <p>0,01 mlrd so'm</p>  <p>0,001 %</p>
<p>Otlar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,01%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 473** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 471** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	6 946,9	111,8
Urganch sh.	111,3	108,9
Xiva sh.	15,9	111,4
Bog'ot	19,1	109,7
Gurlan	6,2	111,7
Qo'shko'pir	4,0	109,2
Urganch	39,9	116,0
Hazorasp	9,6	109,6
Tuproqqal'a	4,6	105,5
Xonqa	19,1	108,8
Xiva	5,2	108,7
Shovot	19,0	108,2
Yangiariq	10,2	110,2
Yangibozor	8,8	114,0

2024- yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **6 946,9** mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **11,8** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **92,9** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Xorazm viloyati	4 444,6	100,0
Urganch sh.	3 939,3	88,6
Xiva sh.	41,6	0,9
Bog'ot	71,6	1,6
Gurlan	19,9	0,4
Qo'shko'pir	12,2	0,3
Urganch	47,1	1,1
Hazorasp	139,8	3,1
Tuproqqal'a	13,3	0,3
Xonqa	74,4	1,7
Xiva	5,9	0,1
Shovot	28,7	0,6
Yangiariq	36,1	0,8
Yangibozor	14,7	0,3


Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**3939,3** mlrd so'm), Hazorasp (**139,8** mlrd so'm) va Xonqa (**74,4** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) **4 444,6** mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **92,8** foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **3 881,4** mlrd so‘m (o‘sish sur‘ati – **167,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **563,2** mlrd so‘mni (o‘sish sur‘ati – **22,8** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5 553,2** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **7,5** % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **5 279,5** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **119,8** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **95,1** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 378** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **36** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 342** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Hazorasp tumani (**21,4** martaga) va Qo'shko'pir tumanida (**4,8** martaga) kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	5 553,2	107,5
Urganch sh.	2 759,9	114,2
Xiva sh.	141,3	122,0
Bog'ot	67,9	72,9
Gurlan	106,4	63,8
Qo'shko'pir	55,8	116,3
Urganch	941,9	93,2
Hazorasp	66,8	122,5
Tuproqqal'a	63,4	119,8
Xonqa	228,6	98,0
Xiva	317,5	138,3
Shovot	85,1	114,2
Yangiariq	192,6	97,8
Yangibozor	98,1	115,9